

2023– yilning yanvar–mart oylarida Buxoro viloyatining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023– yilning yanvar–mart oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiyligi hajmi 3 766,5 mlrd. so'mni yoki 2022– yilning mos davriga nisbatan 103,1 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 3 688,8 mlrd. so'mni (103,0 %), o'rmon xo'jaligi – 42,8 mlrd. so'mni (100,7 %), baliqchilik xo'jaligi – 34,9 mlrd. so'mni (112,1 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarkibida Buxoro viloyatining ulushi 9,3 % ni tashkil etdi.





Buxoro viloyatining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o'sish sur'ati, % da

01



Dehqonchilik
va chorvachilik,
ovchilik va ushbu
sohalarda ko'rsatilgan
xizmatlar – **103,0 %**

02



O'rmon xo'jaligi
100,7 %

03



Baliqchilik xo'jaligi
112,1 %

2023- yilning yanvar – mart oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda 103,1 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 103,0 % ni, o'rmon xo'jaligi – 100,7 % ni, baliqchilik xo'jaligi – 112,1 % ni tashkil qildi.

Ma'lumot uchun:

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023– yilning yanvar- mart oylarida tarmoqning ijobjiy o'sish sur'atiga asosan quyidagi mahsulotlarning 2022 – yilning mos davriga nisbatan yugori o'sish sur'ati qayd etilganligi orqali erishildi.

- ✓ Qorako'l teri — 109,4 %
- ✓ Qirqib olingan jun — 108,7 %
- ✓ Olingan tuxum — 108,5 %
- ✓ Go'sht tirik vaznda — 104,3 %
- ✓ Sog'ib olingan sut — 103,5 %



Buxoro viloyatining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiylajmining taqsimlanishi



Dehqonchilik
va chorvachilik, ovchilik
va ushbu sohalarda
ko'rsatilgan xizmatlar

97,9 %

O'rmon xo'jaligi

1,1 %


Baliqchilik xo'jaligi

1,0 %

2023- yilning yanvar – mart oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiylajmining 97,9 % i - dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlarning (2022- yilning yanvar – mart oylarida 97,9 %), 1,1 % i - o'rmon xo'jaligi (1,1 %), 1,0 % i baliqchilik xo'jaligi (1,0 %) hissasiga to'g'ri keldi.



**Hududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik
xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi**




2023– yilning yanvar– mart oylarida, tuman va shaharlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Buxoro (476,0 mlrd. so'm) va Jondor (470,0 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Kogon shahri (13,0 mlrd. so'm), Buxoro shahri (67,0 mlrd. so'm) va Qorovulbozor tumani (129,0 mlrd. so'm) keltirib o'tish mumkin.

Viloyat ko'satkichidan (103,1 %) yuqori o'sish sur'atlari Qorovulbozor (108,4 %), Qorako'l (105,0 %), Olot (104,9 %), Jondor (104,2 %), Peshku (103,5 %) va Shofirkon (103,4 %) tumanlarida kuzatildi. Romitan (102,9 %), G'ijduvon (102,4 %), Buxoro (102,1 %), Kogon shahar (102,1 %), Buxoro shahar (101,6 %), Vobkent (101,1 %) va Kogon (100,0 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.




Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'ati

O'sish sur'ati %



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi, % da



Hududlar bo'yicha tahlil qilinganda eng yuqori ulush Buxoro (12,6 %), Jondor (12,3 %) va Romitan (10,3 %) tumanlariga kuzatildi. Aksincha kam ulushga ega hududlar Kogon shahar (0,4 %), Buxoro shahar (1,8 %), Qorovulbozor (3,4 %) va Olot (7,5 %) tumanlariga kuzatildi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2023–yilning yanvar– mart oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 3 633,4 mlrd. so'mni yoki 2022–yilning mos davriga nisbatan 102,9 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 261,3 mlrd. so'mni (89,1 %), chorvachilik mahsulotlari – 3 372,1 mlrd. so'mni (104,0 %) tashkil qildi.



**Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish
hajmida dehqonchilik va chorvachilik
mahsulotlarining ulushi, (% da)**



7,2 %

**Dehqonchilik
mahsulotlari**




92,8 %

**Chorvachilik
mahsulotlari**



**Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari
hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi, (% da)**



**Dehqonchilik mahsulotlarini ishlab
chiqarishda yuqori ulushga ega hududlar**

**Chorvachilik mahsulotlarini ishlab
chiqarishda yuqori ulushga ega hududlar**

- 01 ▶ Qorovulbozor
- 02 ▶ Romitan
- 03 ▶ Buxoro

- Kogon sh. ◀ 01
- Vobkent ◀ 02
- Peshku ◀ 03



Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi
mahsulotlarining xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi



86,8 %

Dehqon va tomorqa
xo'jaliklari



8,8 %

Fermer
xo'jaliklari



4,4 %

Qishloq xo'jaligini amalga
oshiruvchi tashkilotlari

Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiylajmining 86,8 % i – dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 8,8 % i – fermer xo'jaliklariga, 4,4 % i – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ulushining hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkichlar barcha hududlarda dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.




Ma'lumot uchun:

Asosiy turdag'i qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda dehqon va tomorqa xo'jaliklarining ulushi quyidagicha:

- ✓ Go'sht (tirik vaznda) — 91,2 %
- ✓ Sog'ib olingan sut — 92,4 %
- ✓ Olingan Tuxum — 46,2 %
- ✓ Sabzavotlar — 26,2 %



**Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining
hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida
taqsimlanishi, (% da)**



2023-yilning yanvar–mart oylari yakuniga ko'ra ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida (23,7 %), dehqon va tomorqa xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Vobkent tumanida (97,4 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Qorovulbozor (32,2 %) tumanida qayd etildi.

Fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo'yicha eng kam ko'rsatkich Buxoro shaharda (0,2 %), dehqon va tomorqa xo'jaliklarining eng kam ulushi Qorovulbozor tumanida (44,1 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Vobkent va Shofirkon tumanlarida (0,1 %) qayd etildi.




Dehqonchilik


2023–yilning yanvar – mart oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 261,3 mlrd. soʻmni yoki 2022–yilning mos davriga nisbatan 89,1 % ni tashkil etdi. Yetishtirilgan qishloq xoʼjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 7,2 % ni tashkil qildi.

Sabzavotlar


Hajmi, tonna



Oʼsish surʼati



**Yetishtirilgan mahsulotning
xoʼjalik toifalari boʼyicha taqsimlanishi**



Fermer xoʼjaliklari

**Dehqon va tomorqa
xoʼjaliklari**

**Qishloq xoʼjaligi faoliyatini
amalga oshiruvchi tashkilotlar**




2023–yilning yanvar – mart oylarida barcha toifadagi xoʼjaliklar tomonidan 7,2 ming t. sabzavotlar (2022–yilning yanvar – martiga nisbatan 21,2 % ga kam) yetishtirildi. Sabzavot yetishtirish koʼrsatkichlarini xoʼjalik toifalari boʼyicha tahlili, sabzavot yetishtirish umumiy hajmidan 26,2 % i dehqon va tomorqa xoʼjaliklari hissasiga toʼgʼri kelishini koʼrsatdi.



Hududlar bo'yicha sabzavotlar yetishtirish

hajmi, ming tonna

**Viloyatning umumiy hajmiga
nisbatan ulushi**



Yuqori ulushga ega hududlar

Romitan tumani **25,9 %**

Buxoro tumani **23,6 %**

Qorovulbozor tumani **21,8 %**

G'ijduvon tumani **10,3 %**

Past ulushga ega hududlar

Vobkent tumani **0,4 %**

Peshku tumani **1,0 %**


Kogon tumani **2,2 %**

Jondor tumani **2,3 %**



Chorvachilik

2023–yilning yanvar – mart oylarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 3 372,1 mlrd. so‘mni yoki 2022–yilning mos davriga nisbatan 104,0 % ni tashkil qildi. Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 92,8 % ni tashkil etdi.




Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste’mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to’ldirishga imkon yaratdi.


2023–yilning yanvar – mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 51,0 ming t. go‘sht (2022–yilning yanvar – martiga nisbatan 4,3 % ga ko‘p), 203,6 ming t. sut (3,5 % ga ko‘p), 84,4 mln. dona tuxum (8,5 % ga ko‘p), 125,0 tonna jun (8,7 % ga ko‘p), 159,8 ming dona qorako‘l teri (9,4 % ga ko‘p) yetishtirildi va 1,5 ming t. baliq (16,9 % ga ko‘p) ovlandi.

Go'sht (tirik vaznda)


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




2023- yilning yanvar - mart oylarida go'sht yetishtirish to'g'risidagi ma'lumotlarning xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil natijalariga asosan, go'sht yetishtirishning eng katta hajmi 46,5 ming t. yoki umumiy yetishtirish hajmidan 91,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklarida qayd etilganligini ta'kidlash lozim.

2022- yilning mos davri bilan solishtirganda, 2023- yilda dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 2,3 %, fermer xo'jaliklarda 55,3 % va qishloq xo'jaligini amalga oshiruvchi tashkilotlarga 4,2 % ga o'sish kuzatildi.



Hududlar bo'yicha go'sht (tirik vaznda) yetishtirish

hajmi, ming tonna



Viloyatning umumiy hajmiga nisbatan ulushi



Yuqori ulushga ega hududlar

Jondor tumani	12,8 %
Buxoro tumani	12,1 %
Kogon tumani	10,7 %
Shofirkon tumani	10,2 %


Past ulushga ega hududlar

Kogon shahri	0,5 %
Buxoro shahri	2,3 %
Qorovulbozor tumani	2,8 %
Peshku tumani	5,9 %




Sut


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik
toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jalik toifalari orasida sut yetishtirishning eng katta hajmi 188,1 ming t. yoki umumiyetishtirish hajmidan 92,4 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklarida qayd etildi.


2023- yilning yanvar- mart oylari yakunlari bo'yicha eng kam hajm 1,5 ming t. yoki umumiyetishtirish hajmidan 0,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda kuzatildi.

2023- yilga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda, fermer xo'jaliklarida 110,2 % va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 390,2 % o'sish kuzatildi.




Hududlar bo'yicha sut yetishtirish

hajmi, ming tonna



**Viloyatning umumiy hajmiga
nisbatan ulushi**



Yuqori ulushga ega hududlar	Past ulushga ega hududlar
Jondor tumani 13,5 %	Kogon shahri 0,1 %
Buxoro tumani 12,1 %	Buxoro shahri 0,8 %
Shofirkon tumani 11,3 %	Qorovulbozor tumani 1,1 %
G'ijduvon tumani 10,7 %	Kogon tumani 5,1 %




Tuxum


Hajmi, mln. dona



O'sish sur'ati



**Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik
toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




Boshqa toifadagi xo'jaliklarga nisbatan taqqoslanganda, tuxum yetishtirishning eng katta hajmi 39,0 mln. dona yoki umumi yetishtirish hajmidan 46,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklarida qayd etildi.

2023- yilning yanvar- mart oylarida, yetishtirishning eng kam hajmi 16,7 mln. dona yoki umumi yetishtirish hajmidan 19,8 % i fermer xo'jaliklarida kuzatildi.

2022- yilga nisbatan, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 0,5 %, fermer xo'jaliklarda 13,0 % va qishloq xo'jaligini amalga oshiruvchi tashkilotlar 18,8 % ga o'sish kuzatildi.




Hududlar bo'yicha tuxum yetishtirish




Yuqori ulushga ega hududlar	Past ulushga ega hududlar
Jondor tumani 26,9 %	Kogon shahri 0,3 %
Kogon tumani 23,1 %	Buxoro shahri 1,3 %
Buxoro tumani 8,6 %	Qorovulbozor tumani 2,5 %
Qorako'l tumani 8,5 %	Peshku tumani 3,5 %



Baliq



Ovlangan baliqning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




Baliq ovlash ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilish jarayonida, ovlangan baliqlar hajmining asosiy qismi 1 176,3 t. yoki umumiy ovlangan hajmidan 78,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda qayd etildi.

2023- yilning yanvar - mart oylari natijalari bo'yicha baliq ovlashning eng kam hajmi 107,0 t. yoki umumiy ovlangan hajmidan 7,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklarida kuzatildi.

2022- yilga nisbatan, fermer xo'jaliklarida 120,0 %, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 5,7 % va qishloq xo'jaligini amalga oshiruvchi tashkilotlar 8,9 % ga o'sish kuzatildi.



Hududlar bo'yicha ovlangan baliqlar



Yuqori ulushga ega hududlar	Past ulushga ega hududlar
Shofirkon tumani 33,9 %	Kogon tumani 1,1 %
Buxoro tumani 12,8 %	Qorovulbozor tumani 1,2 %
Peshku tumani 11,2 %	Vobkent tumani 2,1 %
Olot tumani 10,7 %	Jondor tumani 5,1 %



Chorva mollari va parrandalar bosh soni, ming bosh




2023– yilning 1– aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 7,2 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 91,6 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiyligini sonidan 14,2 % i fermer xo'jaliklariga, 78,8 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 7,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shunga mos ravishda otlarning umumiyligini sonidan 37,2 % i fermer xo'jaliklariga, 47,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 15,5 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shuningdek, parrandalar umumiyligini sonidan 25,2 % i fermer xo'jaliklariga, 45,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 28,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.

2023–yilning 1 – aprel holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1 312,1 mingtaga yetdi.


2022–yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 32,0 mingtaga (2,5 %) ko‘paydi.

Yirik shoxli qoramollar


Soni, ming bosh



O’sish sur’ati



**Jami bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**



Fermer xo‘jaliklari

**Dehqon va tomorqa
xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini
amalga oshiruvchi tashkilotlar**




2023–yilning 1 – aprel holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 91,4 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



Yirik shoxli qoramollar

bosh son, ming bosh



Viloyatning umumiy hajmiga nisbatan ulushi



Yuqori ulushga ega tumanlar

G'ijduvon tumani	12,4 %
Qorako'l tumani	11,6 %
Shofirkon tumani	11,0 %
Jondor tumani	10,2 %

Past ulushga ega hududlar


Kogon shahar	0,1 %
Buxoro shahar	0,4 %
Qorovulbozor tumani	1,6 %
Kogon tumani	6,4 %

2023–yilning 1 – aprel holatiga ko‘ra, sigirlarning umumiy bosh soni 425,4 mingtaga yetdi.


2022–yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda sigirlar bosh soni – 15,5 mingtaga (3,8 %) ko‘paydi.

Sigirlar


Soni, ming bosh



O’sish sur’ati



**Jami bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**



Fermer xo‘jaliklari

Dehqon va tomorqa
xo‘jaliklari

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini
amalga oshiruvchi tashkilotlar




2023–yilning 1 – aprel holatiga ko‘ra, sigirlar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, jami sigirlarning 91,6 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelmoqda.



Sigirlar bosh soni

bosh son, ming bosh



**Viloyatning umumiy hajmiga
nisbatan ulushi**



Yuqori ulushga ega tumanlar

Qorako'l tumani	14,8 %
G'ijduvon tumani	12,4 %
Jondor tumani	10,4 %
Shofirkon tumani	9,9 %

Past ulushga ega hududlar


Kogon shahar	0,1 %
Buxoro shahar	0,4 %
Qorovulbozor tumani	1,7 %
Olot tumani	7,6 %

2023–yilning 1 – aprel holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 2 339,1 mingtaga yetdi.


2022–yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda qo‘y va echkilarni bosh soni – 70,4 mingtaga (3,1 %) ko‘paydi.

Qo‘y va echkilarni


Soni, ming bosh



O’sish sur’ati



**Jami bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**



Fermer xo‘jaliklari

**Dehqon va tomorqa
xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini
amalga oshiruvchi tashkilotlar**




2023–yilning 1 – aprel holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarni bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami qo‘y va echkilarning 78,8 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelmoqda.




Qo'y va echkilar

bosh son, ming bosh



**Viloyatning umumiy hajmiga
nisbatan ulushi**



Yuqori ulushga ega tumanlar

Jondor tumani	14,2 %
G'ijduvon tumani	12,7 %
Qorako'l tumani	12,5 %
Peshku tumani	10,5 %

Past ulushga ega hududlar


Kogon shahar	0,1 %
Buxoro shahar	0,8 %
Kogon tumani	3,8 %
Vobkent tumani	4,7 %

2023–yilning 1 – aprel holatiga ko‘ra, otlarning umumiy bosh soni 7 141 taga yetdi.


2022–yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda otlar bosh soni – 452 taga (6,8 %) ko‘paydi.

Otlar


Soni, bosh



O’sish sur’ati



**Jami bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




2023–yilning 1 – aprel holatiga ko‘ra, otlar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar, xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, jami otlarning 47,3 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ta’kidlash lozim.




Otlar bosh soni

bosh son, bosh



**Viloyatning umumiy hajmiga
nisbatan ulushi**



Yuqori ulushga ega tumanlar

G'ijduvon tumani	18,5 %
Romitan tumani	17,0 %
Peshku tumani	11,9 %
Qorovulbozor tumani	11,1 %

Past ulushga ega hududlar

Buxoro shahar	0,3 %
Kogon tumani	2,9 %
Olot tumani	3,0 %
Vobkent tumani	4,0 %

2023–yilning 1 – aprel holatiga ko‘ra, parrandalarning umumiy bosh soni 6 329,7 mingtaga yetdi.


2022–yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda parrandalar bosh soni – 638,9 mingtaga (11,2 %) ko‘paydi.

Parrandalar


Soni, ming bosh



O’sish sur’ati



**Jami bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**



Fermer xo‘jaliklari

Dehqon va tomorqa
xo‘jaliklari

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini
amalga oshiruvchi tashkilotlar




2023–yilning 1 – aprel holatiga ko‘ra, parrandalar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 45,9 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishini qayd etish lozim.




Parrandalar

bosh son, ming bosh



**Viloyatning umumiy hajmiga
nisbatan ulushi**



Yuqori ulushga ega tumanlar

Jondor tumani	26,5 %
G'ijduvon tumani	14,3 %
Buxoro tumani	12,3 %
Kogon tumani	11,7 %

Past ulushga ega hududlar

Kogon shahar	0,3 %
Buxoro shahar	1,3 %
Qorovulbozor tumani	1,8 %
Peshku tumani	2,5 %

**Qishloq xo'jaligi va ekologiya
statistikasi bo'limi**



• 65- 223-44-45